

### **O'ylab javob bering:**

1. Nima sababdan: «Qorning og'risa nafsingni tiy», deyiladi.
2. Qon aylanish sistemasi orqali qonning oqishini nazarda tutgan holda quyidagi jumboqni yeching: Nima sababdan exinokokk pufagi, odatda, yurakda emas, balki jigar yoki o'pka to'qimalarida hosil bo'ladi?
3. «Kasal bo'lsang nafsingni tiy, oqil bo'lsang tilingni...» maqoli qanday tarbiyaviy ma'noga ega?

### **4-laboratoriya mashg'uloti**

**So'lak va oshqozon shirasining oziq moddalarga ta'sirini o'rghanish.**

*Kerakli jihozlar va asbohlari:* shtativ, 4 ta probirkka, pipetka; termometr, suyultirilgan kraxmal kleysteri, 10 ml suyultirilgan so'lak, xlorid kislotaning 0,1 % li eritmasi, yodning kuchsiz suvli eritmasi, suv hammomi, muz solingan idish.

*Ishni hajarish tartibi:*

- probirkalarga 3 ml dan suyuq kraxmal kleysteri solinadi:
- 1-probirkaga 37 °C li suv hammomiga joylashtiriladi; qolgan 3 ta probirkaga 3 ml dan suyultirilgan so'lak solinadi;
  - 2-probirkaga muz solingan idishga joylashtiriladi;
  - 3-probirkaga 2–3 tomchidan xlorid kislota eritmasi tomizilib, suv hammomiga qo'yiladi;
  - 4-probirkaga suv hammomiga solinadi. 30 minut o'tgach, probirkalar olinib, ularning har qaysisiga 2–3 tomchidan yod eritmasi tomiziladi;
  - 1-, 2-, 3-probirkalardagi aralashma ko'k rangga bo'yalishi qayd etiladi;
  - 1-, 2-, 3-probirkalardagi kraxmal yod ta'sirida ko'k rangga bo'yalganligi tushuntiriladi;
  - 1-probirkaga so'lak solinmaganligi sababli kraxmal parchalanmaganligi izohlab beriladi;
  - 2-probirkaga muzli idishda turganligi uchun so'laksov uharoratda kraxmalni parchalamaganli tushuntiriladi;
  - 3-probirkaga xlorid kislota qo'shilganligi natijasida kislotali muhitda so'lak kraxmalga ta'sir etmasligi sharhlab beriladi;
  - 4-probirkada iliq haroratda so'lak kraxmalni parchalashi tushuntiriladi.